

KNAUF-Sapfir

Gipsli qurilish plitasi

Quruq qurilish

01/2026



Umumiy ma'lumotlar


KNAUF-Sapfir qoplamasi - bu yuqori sifatli gipsli qurilish plitasi (DFH3IR turdagi GQP) bo'lib, devorlarga qoplash, pardevorlar, osma shiftlar, tovush o'tkazmaydigan va olovdan himoyalangan konstruksiyalar qurishda ishlatiladi.

KNAUF-Sapfir qoplamasi GOST 32614-2012 (EN 520:2009) ga muvofiq ishlab chiqariladi. Ishlab chiqarishda kulrang-havorang tusli yuqori sifatli karton ishlatiladi.

KNAUF-Sapfir qoplamasi choklarning ishonchiligi nuqtai nazaridan eng texnologik bo'lgan yarim yumaloq botiq qirra bilan ishlab chiqariladi.

Qo'llanish sohalari

KNAUF-Sapfir qoplamasi quruq qurilishning barcha turlarida - pardevorlarda, devorga va shiftga qoplashda qo'llaniladi.



O'z xususiyatlariga ko'ra, KNAUF-Sapfir qoplamasi universal pardozlash materiali hisoblanib, binolarda turlicha funksional vazifalarda qo'llanilishi mumkin.

Asosiy qo'llanilish sohalari - bu yuqori sifatli pardozlash uchun mo'ljallangan binolardir, jumladan, biznes-klassdagi tijoriy binolar, elita turarjoylar, tibbiy markazlar, DeLuxe (5*) kategoriyali mehmonxonalar v.b. KNAUF-Sapfir qoplamasi zarbaga bardoshli pardoz materiali hisoblanib, pardoz shikastlanishi oson joylarda - koridorlarda, xollarda, texnik xonalarda, odamlar ko'p o'tadigan joylarda qo'llanilishi mumkin.

Yuqori zichlikdagi o'zagi ovozdan yuqori himoyani ta'minlaydi. Bitta Sapfir qoplamasidagi havo shovqinini izolyatsiyalash indeksi 31 dB ga teng bo'lib, oddiy GKQ nikidan 3 dB ga ortiqroqdir. KNAUF-Sapfir qoplamasi kinoteatrlarni o'rovchi konstruksiyalarda, ovoz yozish studiyalarida va ovoz o'tkazmaydigan boshqa xonalarda ishlatiladi.

Yong'inga xavflilik sinfi KM1 KNAUF-Sapfir qoplamasi ko'p odam to'planadigan bino va inshootlarda (ta'lim muassasalari, shifoxonalar va sanatoriylar, muzeylar, kinoteatrlar, 300 kishigacha sig'iradigan zallar) qo'llashga imkon beradi.

Qoplamalarning oshirilgan mustahkamligi konstruksiyalarning o'ta qattiqligini va og'ir narsalar, jumladan, idish-tovoqlar uchun oshxona tokchasi, vannaxona jihozlari uchun osma shkaflar, yo'lakdagi kiyim ilgichlarni osish imkoniyatini ta'minlaydi.

Namga chidamliligi KNAUF-Sapfir qoplamasi yuqori namlikdagi xonalarda ishlatishga imkon beradi.

Xususiyati

KNAUF-Sapfir qoplamasi qator xususiyatlarga ega: yuqori zichlik, olovbardoshlik, namga chidamlilik, zarbga chidamlilik va oshirilgan mustahkamlik. Ishlab chiqarishda katta grammaturali yuqori sifatli karton qo'llanilib, u mahsulot yuzasining eng yaxshi sifatini ta'minlaydi va qoplama mustahkamligini sezilarli oshiradi.

Shartli belgilar

KNAUF Sapfir qoplamasining shartli belgilari quyidagilardan iborat:

- plita turining harf bilan belgilanishi - GQP;
- standart belgilanishi;
- KNAUF-qoplamaning bo'ylama qirralari belgilanishi;
- KNAUF-qoplamaning nominal uzunligi, kengligi va qalinligini millimetrdan ko'rsatuvchi son.

Uzunligi 2500 mm, kengligi 1200 mm va qalinligi 12,5 mm bo'lgan yarim dumaloq botiq qirrali gipsli qurilish plitasining shartli belgilanishiga misol: DFH3IR turidagi gipsli qurilish plitasi GSP - GOST 32614-2012 (EN 520:2009) YYBQ 12,5-1200-2500. KNAUF Sapfir qoplamasi buyurtmaga ko'ra boshqa nominal o'lchamlarda tayyorlanishi mumkin.

Yong'in-texnik xususiyatlari

Yong'inga xavflilik sinfi Km1.

Gips asosli barcha qurilish materiallari singari KNAUF-Sapfir qoplamalari yuqori yong'in-texnik xususiyatlariga ega:

- YO1 (GOST 30244 bo'yicha yonuvchanligi);
- A1 (GOST 30402 bo'yicha alanganuvchanligi);
- T1 (GOST 12.1.044 bo'yicha tutun paydo qilish qobiliyati);
- Z1 (GOST 12.1.044 bo'yicha zahariligi).

Texnik xususiyatlari

Ko'rsatkichining nomi	Qiymati
Uzunligi, mm	2500
Kengligi, mm	1200
Qalinligi, mm	12,5
Zichligi, kg/m ³	1000±50
1 m ² plita vazni, kg	~12
Suv singdirishi, vazniga ko'ra % da	≤25
Bo'ylama yo'nalishda egishda sindiradigan yuklanish	N _{≥800}
O'zagining qattiqligi	N _{≥200}
GOST bo'yicha yuza qattiqligi, etalon po'lat soqqa zarbasining izi, mm	12-13
Mixlanuvchanligi, ser./kr. N	470/300

Manzil:

Toshkent sh, Shaxrisabz q, 2, Tower 2, 5 qavat

Kontaktlar:

+998 78 150 11 59
+998 78 150 11 60
+998 78 150 11 61

KNAUF | Qurug' qurilish | 15.01.2026 yildan amal qiladi |
www.knauf.uz | 2 Sahifa

Qo'llash va saqlash

Tashish va saqlash

KNAUF-Sapfir-qoplamalari tegishli turdagi transport vositasiga nisbatan amal qiluvchi yuk tashish qoidalariga muvofiq barcha turdagi transport vositalarida paketlangan ko'rinishda tashiladi.

Yog'och yoki GQP polosadan yasalgan taglik yoki qistirmaga yoni bilan terilgan bo'ylama qirralari va bo'laklaridan bir xil KNAUF-Sapfir qoplamalaridan tashish paketlari tayyorlanib, qoidaga ko'ra, po'lat yoki sintetik lenta bilan bog'lanadi va polietilen plenkaga o'raladi. Bog'lamalar soni, ularning kesimi va qistirmalarning o'lchamlari texnologik reglament bilan o'raladi. Iste'molchi bilan kelishuvga ko'ra, KNAUF-qoplamalarni paketlanmagan ko'rinishda ham tashishga ruxsat etiladi.

KNAUF-qoplamalarni tashish va saqlash quyidagi qoidalariga amal qilishni talab qiladi:

- transport paketining gabaritlari (taglik yoki qistirma bilan) 4100x1300x800 mm dan, paket vazni 3000 kg dan ortib ketmasligi kerak;
- paketlardan tashkil topgan shtabel iste'molchida saqlashda xavfsizlik texnikasi qoidalariga muvofiq balandligi 3,5 m dan oshmasligi kerak;
- transport paketlarini ochiq temir yo'l va avtomobil transport vositalarida tashishda paketlar namlanishdan himoyalangan bo'lishi kerak;
- yuklash-tushirish, tashish va omborga joylash hamda boshqa ishlarda KNAUF-qoplamalarga zarb berish mumkin emas.
- KNAUF-Sapfir qoplamalarini usti yopiq quruq binolarda ko'rinishi va o'lchamiga qarab ajratib saqlash kerak.

Barcha texnologik jarayon davomida va uning oxirida KNAUF-qoplamalar qabul qilish-topshirish sinovlari natijasi bo'yicha o'tkaziladigan qat'iy texnik nazoratdan o'tadi.

Qo'llash bo'yicha ko'rsatmalar

KNAUF-Sapfir qoplamalarini metall karkasga mahkamlash uchun XTN turidagi burama mixlardan foydalanish kerak. To'g'ri burchakli shaklga ega ko'ndalang qirralar hosil qilgan choklar o'rnatirishda qirrasidan KNAUF-qoplamaning, taxminan, 2/3 qalinligicha faska olish kerak.

KNAUF-Sapfir qoplamalarini qo'llashda belgilangan tartibda tasdiqlangan loyiha hujjatlariga amal qilish kerak:

- "Gipskarton KNAUF-qoplamalardan pardevorlar" albomi, 1.031.9-2.07-seriya, 5-nashr (1.031.9-2.00 seriya bazasida ishlangan, SK-3 reyestriga kiritilgan);
- "Gipskarton KNAUF-qoplamalardan devoryuzasini qoplash", 1.073.9-2.08- seriya, 3-nashr (1.073.9-2.00-seriya bazasida ishlangan, SK-3 reyestriga kiritilgan);
- "Gipskarton KNAUF-qoplamalardan va gips tolali KNAUFsuperqoplamalardan osma shiftlar" albomi, 1.045.9-2.08-seriya, 3-nashr.

KNAUF material va konstruksiyalarning asosiy parametrlariga ta'sir qilmaydigan o'zgarishlarni kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi. Barcha texnik xususiyatlar KNAUF firmasi tavsiya qilgan materiallardan foydalangan holatdagina ta'minlanadi. Materiallarni qo'llashga doir barcha ko'rsatmalar muayyan hisob-kitobga asoslangan bo'lib, ko'rsatilganidan farq qilgan holatda aniqlashtirilishi talab etiladi. Qo'shimcha maslahat uchun KNAUF texnik xizmatiga murojaat qiling.